

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

THE HUMAN IMAGE IN LANGUAGE: THE PHENOMENON OF LINGUISTIC ANTHROPOMORPHISM

A.M. Yusupova

PhD candidate

*The Institute of Uzbek Language, Literature, and Folklore of
the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: linguistic anthropomorphism, metaphor, personification, imagery, linguistic thought, Uzbek language, culture, emotional expression.

Received: 23.10.25**Accepted:** 24.10.25**Published:** 25.10.25

Abstract: This article analyzes the phenomenon of linguistic anthropomorphism from the perspective of the interrelation between human thought and language. By attributing human qualities to inanimate objects and phenomena in language, a person better understands their world, making it more comprehensible and vivid. Using examples from the Uzbek language, the poetic, cultural, and modern forms of anthropomorphism are examined, highlighting both the universality and the national features of this phenomenon.

TILDA INSON QIYOFASI: LINGVISTIK ANTROPOMORFIZM FENOMENI

A.M. Yusupova

*O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: lingvistik antropomorfizm, metafora, personifikatsiya, obrazlilik, til tafakkuri, o'zbek tili, madaniyat, emotsional ifoda.

Annotatsiya: Ushbu maqolada lingvistik antropomorfizm hodisasi inson tafakkuri va tilining o'zaro bog'liqligi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tilda jonli bo'lmagan obyekt va hodisalarga insoniy xususiyatlarning yuklanishi orqali inson o'z dunyosini yaxshiroq anglaydi, uni tushunarli va obrazli qiladi. O'zbek tili misolida antropomorfizmning poetik, madaniy va zamonaviy ko'rinishlari ko'rib chiqilib, bu hodisaning universalligi va milliy xususiyatlari yoritiladi.

ОБРАЗ ЧЕЛОВЕКА В ЯЗЫКЕ: ФЕНОМЕН ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО АНТРОПОМОРФИЗМА

А.М. Юсупова

Докторант

Института узбекского языка, литературы и фольклора

Академии наук Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: лингвистический антропоморфизм, метафора, персонификация, образность, языковое мышление, узбекский язык, культура, эмоциональное выражение.

Аннотация: В данной статье феномен лингвистического антропоморфизма рассматривается с точки зрения взаимосвязи человеческого мышления и языка. Приписывая человеческие качества неодушевлённым объектам и явлениям, человек лучше осознаёт свой мир, делая его более понятным и образным. На примере узбекского языка анализируются поэтические, культурные и современные формы антропоморфизма, раскрываются универсальность и национальные особенности данного явления.

Kirish. Hayotning o‘zi insoniyatni hayratga soluvchi voqeliklardan iborat. Atrofimizdagi tabiat, texnika, vaqt va tushunchalar hamisha tilimizda jonlanadi — ular go‘yo biz kabi “o‘ylaydi”, “g‘azablanadi”, “kuladi” yoki “jazolaydi”. Bu hodisa tilshunoslikda lingvistik antropomorfizm deb ataladi. Bu tushuncha oddiy ko‘rinadi: til orqali jonli bo‘lmagan narsalarga insoniy xususiyatlar yuklaymiz. Ammo aslida, bu – inson tafakkurining eng qadimiy va chuqur qatlamlariga borib taqaladigan hodisadir. Axir odamzod hayotni tushunish uchun har doim unga o‘zini solishtirib ko‘rgan: shamolni dushmandek “g‘azablangan”, quyoshni do‘stday “kulgan” deb tasvirlagan. Antropomorfizm (yunoncha anthropos – “inson” va morphe – “shakl”) ibtidoiy jamiyatlardan to zamonaviy reklamalargacha bo‘lgan har bir madaniyatda uchraydi. Qadimda odamlar tabiat hodisalarini tushuntirib bera olmay, ularni tushunish uchun “insonlashtirish” yo‘liga o‘tgan. Shamol – g‘azabli ruh, yashin – osmon tangrisining jazosi, tog‘ – sukut saqlayotgan donishmand sifatida qabul qilingan. Bugun esa bu antropomorfizm tilda jonlanadi. Til – bu bizning fikrlash tarzimizning oynasi. Antropomorfizm esa shu oynadan ko‘rinib turadigan eng yorqin akslardan biridir.

Lingvistik antropomorfizm – bu til birliklariga insoniy xususiyatlarni yuklash, ya’ni inson tajribasi va tushunchalariga asoslangan ko‘chma ma’nolar orqali jonsiz obyektlarni inson sifatлари bilan qiyoslashdir. Bu fenomen nafaqat metafora, balki personifikatsiya kabi til vositalari yordamida namoyon bo‘ladi. Inson tafakkuri insoniyatning asosiy tajriba markazi bo‘lgani uchun, atrofdagi dunyoni anglashda inson o‘ziga o‘xshashlik va yaqinlik prinsplariga tayanadi. Shu bois,

jonsiz tabiiy va ijtimoiy obyektlarga insoniy harakat, xulq-atvor, hissiyot va holatlar yuklanadi. Bu jarayon konseptual metafora nazariyasida ham muhim o‘rin tutadi, chunki metafora yangi ma’nolarni hosil qilish va abstrakt tushunchalarni anglash vositasi sifatida tilni boyitadi. Keyingi yillarda bu nazariya turli yo‘nalishlarda rivojlantirildi. Xususan, konseptual metaforalarni identifikatsiya qilish, ularning madaniy va tarixiy kontekstlarini o‘rganish, turli tillar va madaniyatlarda metaforik modellashtirishning o‘ziga xos jihatlarini taqqoslash, metaforalarning diskursiv va ideologik funksiyalarini tahlil qilish kabi yo‘nalishlar shakllandi. Bugungi kunda metaforik modellashtirish nazariyasi nafaqat tilshunoslikda, balki siyosatshunoslik, psixologiya, marketing, tibbiyot, huquqshunoslik kabi ko‘plab sohalarda ham qo‘llanilmoqda.

Inson tafakkurining o‘zi metaforik modellar asosida kechadi. Kognitiv metafora dunyoning konseptual manzarasini modellashtirishning yetakchi usullaridan biri hisoblanadi. Metaforik model – bu til sohiblari ongida mavjud bo‘lgan yoki shakllanadigan konseptual sohalar o‘rtasidagi aloqa sxemasi bo‘lib, uni “X–Y” ko‘rinishidagi belgilar bilan ifodalash mumkin. Metaforik model tushunchasi — tilshunoslik, psixologiya va kognitiv fanlarda keng o‘rganilayotgan nazariy mavzudur. Ushbu model til va tafakkurning o‘zaro aloqasini tushunishda muhim vosita bo‘lib, u orqali murakkab ijtimoiy, siyosiy va madaniy hodisalar oddiy va tanish tushunchalar yordamida tasvirlanadi. Metaforik modelning asosi sifatida “X bu Y” shaklidagi formula qo‘llaniladi, bunda bir sohaning konsepsiyasi boshqasiga o‘xshatilib, tushunishni osonlashtiradi. X belgisi lingvomadaniy hamjamiyat vakillari kognitiv bazasidagi o‘xshatish obyektni, Y belgisi esa mazkur obyektga o‘xshatilayotgan boshqa obyekttni bildiradi. Rossiya va MDH hududidagi olimlar ham metaforik modelni o‘rganishda katta hissa qo‘shganlar. Bu borada N.P. Tropina, Y.V. Kravtsova va E.A.Tihomirova kabi olimlar metaforani nafaqat til hodisasi, balki kognitiv, madaniy va ideologik konstruksiya deb baholaydilar. Ular rus tilidagi matnlarda metafora modellarining strukturasini o‘rganib, ularning kommunikativ funksiyalarini aniqlashga harakat qilishgan. Metaforik modellarning funksiyalari quyidagilardan iborat:

Kognitiv funksiyasi – murakkab tushunchalarni osonlashtiradi (Bu – Lakoff va Johnson (1980) va kognitiv lingvistika asoschilari tomonidan asoslangan).

Kommunikativ funksiyasi – g‘oyalarni sodda, jonli va tushunarli qiladi (Bu funksiya, ayniqsa, kommunikativ pragmatika doirasida Rossiyada o‘rganilgan).

Pragmatik funksiyasi – odamlarning emotsiyalariga ta’sir qiladi, ularni harakatga undaydi (Bu jihatni E.A.Tihomirova, N.D.Arutyunova va siyosiy diskurs tadqiqotchilari tilga olgan).

Ideologik funksiyasi – siyosiy qarashlar va qadriyatlarni yashirin ravishda yetkazadi (Ayniqsa, siyosiy metafora tadqiqotlarida (Tihomirova, Baranov, Chudinov) bu funksiya doim ko‘riladi).

Kognitiv metafora nazariyasida metaforik modellashtirish jarayonining muhim jihatlaridan biri — bu manba soha (source domain) bilan maqsad soha (target domain) o'rtasidagi konseptual bog'liqlikka asoslangan model tuzilishidir. Bu yondashuvga ko'ra, metafora inson tafakkurida bir sohani boshqasining yordami bilan tushunish va talqin etish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Metaforik modellar odatda ikki asosiy tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi: Manba soha + Maqsad soha. Bu yerda manba sohasi odatda insonga tanish, konkret va sezgi bilan bog'liq tajribalarga asoslangan bo'lib, uning yordamida nisbatan mavhum yoki murakkab bo'lgan maqsad sohasi tushuniladi. Kognitiv metafora inson ongida manba sohasining elementlari orqali maqsad sohasini yoritib beradi, ya'ni uni anglashni osonlashtiradi. Boshqacha qilib aytganda, inson murakkab tushunchalarni sodda va hayotda uchraydigan tajriba asosida talqin qilishga urinadi. Masalan, "hayot – yo'l" metaforasida "yo'l" – manba sohasi, "hayot" esa – maqsad sohasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu model yordamida odamlar hayotni yo'l bilan bog'liq elementlar – masalan, yo'nalish, to'siqlar, yo'ldoshlar, manzillar orqali tasavvur qilishadi.

Kognitiv metafora nazariyasi nuqtayi nazaridan qaralganda, o'zbek tilida lingvistik antropomorfizmning asosiy namoyon bo'lish shakllaridan biri — fe'llarning metaforik ishlatilishidir. Ayniqsa, tabiiy hodisalar va manzaralarni tasvirlashda inson harakati, ovoz va ruhiy holatlari bilan qiyoslash keng tarqalgan.

O'zbek tilidagi birgina "silamoq" va "tug'ilmoq" fe'llarining ko'chma ma'noda qo'llanilishi bir nechta umumiy xususiyatlarga ega. Har ikkala fe'l ham o'zining to'g'ridan-to'g'ri fizik harakat yoki biologik jarayon sifatidagi asosiy ma'nosidan yiroqlashgan holda, insoniy tajriba asosida boshqa sohalarni tushuntirishga xizmat qiluvchi manba soha sifatida namoyon bo'ladi. Shu orqali ular mavhum, ichki yoki nofizik holatlarni ifodalash uchun maqsad sohaga aylantirilgan obrazlar bilan birikadi. Bu holat manba soha → maqsad soha asosidagi konseptual metafora modelining yorqin namunasidir.

Masalan, "silamoq" fe'li yordamida shamol yoki sabo kabi tabiat hodisalarining ohangdorligi, yengil va sokin harakati insonga xos mehr, erkalash, teginish harakati bilan talqin qilinadi. Bunda shamol – insoniy sifatlar bilan jihozlangan jonli mavjudot sifatida tasvirlanadi. Bu esa inson + tabiat o'rtasidagi antropomorf metafora asosida sodir bo'lgan konseptual ko'chishdir.

Xuddi shunday, "tug'ilmoq" fe'li ham odatda biologik jihatdan odamning yoki mavjudotning dunyoga kelishi ma'nosini anglatga-da, badiiy matnda u ichki holat, fikr, hissiyot yoki voqealikning boshlanishi kabi mavhum tushunchalarni ifodalashda ishlatiladi. "Ishonch tug'ila bordi", "fojiya tug'ildi", "yangi kun tug'ilmoqda" kabi birikmalarda fe'lining semantik maydoni kengayib, psixologik yoki ijtimoiy-madaniy holatlarning ifodachisiga aylanadi. Bu ikki fe'lining ko'chma ma'nodagi qo'llanilishida yana bir umumiy jihat – ular inson tajribasi asosida boshqa fenomenlarni tushuntirishda vosita bo'lishidir. Ya'ni "silamoq" – sezgilar asosidagi tajriba,

“tug‘ilmoq” esa – hayotiy va hissiy holatlar asosida shakllangan ma’nolarni anglatadi. Ikkalasi ham insonning real dunyodagi tajribasini manba soha sifatida ishlatib, mavhum, metafizik, ichki yoki noorganik sohalarni anglash va tushuntirishga xizmat qiladi.

Bu yondashuvlar o‘zbek tili va madaniyatining muhim xususiyatlaridan birini – tabiat va insonning o‘zaro integratsiyasi, ya’ni ular o‘rtasidagi chegaralarning badiiy matnda silliq va obrazli tarzda yo‘q qilinishini namoyon etadi. Chunki o‘zbek lingvomadaniyatida tabiat nafaqat tashqi muhit, balki insonning ichki holatining aksidir, shuningdek insoniy hislar, ruhiy holatlar esa jonli hayot hodisasi sifatida talqin etiladi. Masalan, “Yuzlarimni silab-siypalab esadi yel”[H.Olimjon, Daryo] – bu yerda yel (sabo) inson kabi erkalaydi, mehr ko‘rsatadi. “Silamoq” fe’li bu yerda inson harakati orqali tabiat hodisasini anglashga xizmat qiladi. “Ishonch tug‘ila bordi”, “fojiya tug‘ildi” kabi birikmalarda esa tug‘ilmoq fe’li orqali ichki kechinma yoki holat biologik jarayon sifatida metaforik ifoda topgan. Shu tarzda har ikkala metaforik model – “silamoq” (SEZGILAR → TABIAT) va “tug‘ilmoq” (BIOLOGIK JARAYON → RUHIY HOLAT) – inson ongi tomonidan murakkab, mavhum yoki tasavvur qilish qiyin bo‘lgan hodisalarni soddalashtirib, idrok etishni osonlashtiruvchi kognitiv vosita sifatida qo‘llaniladi.

Yuqoridagi misollarda ko‘rinib turibdiki, silamoq va tug‘ilmoq fe’llari o‘zining asosiy – to‘g‘ridan to‘g‘ri leksik ma’nosidan tashqari, ko‘chma ma’noda qo‘llanib, antropomorf (insoniylashtirish) metafora vositasi sifatida xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, silamoq va tug‘ilmoq kabi fe’llarning ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi – bu shunchaki stilistik bezak emas, balki inson tafakkurining konseptual xususiyatlari, til va madaniyat birligi, o‘zbek xalqining tabiatga, hayotga, ichki dunyoga nisbatan munosabatining badiiy ifodasidir. Bu metaforalar tilimizda tabiat va inson o‘rtasidagi beg‘ubor rishtalarni, shuningdek, ichki kechinmalarimizni ko‘rinmas, ammo kuchli obrazlar orqali namoyon etish imkonini beradi. Shu jihatdan ular o‘zbek tili va madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Чудинов А.П. Политическая лингвистика. – М.:Флинта, Наука, 2012.
2. Lakoff G and Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: The University of Chicago Press, 1980.
3. Xudoyberganova D.S. O‘zbek tili metaforalarining antropotsentrik lug‘ati – Toshkent, 2025
4. Tropina N.P., Kravtsova Y.V. “Семантика и прагматика метафоры в политическом дискурсе”, 2010.
5. Tihomirova E.A. “Метафора в политическом дискурсе”, Методология исследований политического дискурса, Выпуск 1, Минск, 1998, с. 214–221.